



POLAND



POLAND

POSTMODERNIZM VA UNING XUSUSIYATLARI

Z.B.Djalilova

Ingliz tilshunosligi kafedrası

Buxoro davlat universiteti

z.b.djalilova@buxdu.uz

Z.J.Sadilloeva

Xorijiy tillar fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15661502>

Anotatsiya: Ushbu tezis jahon adabiyotda postmodernizm oqimini vujudga kelishi, yozuvchilarning postmodernizm haqidagi fikrlari shuningdek bu oqimning xususiyatlari haqida bayon qiladi.

Kalit s'ozlar: postmodernism. Intertekstullik, kinoya, simbolizm, metahikoya.

Adabiyot tushunchasi asrlar davomida shakllangan, shuningdek haliyam shakllanishda davom etayotgan bir okean hisoblanadi. Di Yanning takidlashicha, adabiyot bu ijod namunasi ya'ni hikoyalar aytadigan, tuyg'ularni bayon qiladigan va fikrlarni yaxshilab tekshirib ularni qo'llab quvvatlaydigan ijodiy ishi. Postmodernizm esa mana shu katta okeanning bir oqimi hisoblanadi.

Yozuvchilarning fikriga qaraganda, postmodernizm undan oldingi oqim bo'lmish modernizm doirasida namoyon bo'lishi mumkin bo'lmagan narsani aynan namoyish orqali ilgari suradigan oqimdir. Postmodernizm XX asrning 50-60yillarida shakllana boshlagan na falsafiy na badiiy yo'nalish. U nisbiylik, ironiya, fragmentatsiya va intertekstuallik kabi xususiyatlarga ega. Jean-François Lyotardning fikricha, postmodernizm bu modernizmning davomi bo'lib, unga chambarchas bog'liqdir. Faylasuf postmodernizmni avangard timsolida tasvirlaydi, ya'ni har qanday davr uchun belgilangan an'analar va qoidalarga qarshi chiqish sifatida namoyon bo'ladi. Bu mavjud qoidalarni yo'q qilish va yangi asosda boshlash orqali amalga oshiriladi.

Postmodernizm oqimining aniq belgilangan tushunchasi yo'qligini isbotlash uchun Raymond Federman o'zining "Aunt Rachel's Fur" asaridagi qahramonini tavsiflab, "Postmodernizm oqimining tushunchasi aniq bo'lmagan va biz uni to'liq tushunib olgunimizcha, uning yo'q bo'lib ketishi mumkinligidan afsusda ekanligini,"- deya asar qahramoni orqali ta'kidlaydi. Qahramon postmodernizmga ko'nikib undan zavq olganini lekin uning yo'qolib ketganligidan afsusdaligini aytadi va postmodernizmdan keyingi keladigan davrni qanday atash mumkinligi haqida o'ylab ko'radi. Postmodernizm allaqachon chegaralari noaniq bo'lgan oqim edi, undan keyingi davr esa yanada mavhum bo'lib, uni na aniq tushuntirish, na izchil nomlash imkoni bor:



POLAND



POLAND

“postpostmodernizm” haddan tashqari murakkab va sun’iy tuyulsa, “popomomo” esa jiddiylıkdan yiroq bo’lib, juda yengil va jiddiy emasdek ko’rinadi. Ya’ni bu bilan yozuvchi postmodernizmdan keyingi davrni atash hattoki qiyinligini tushuntirib bergan hisoblanadi. Postmodernizmga aniqlik yetishmaganidek undan keyin keladigan davrni ham aniq ta’riflab bo’lmaydi.

Terry Eagletonning fikriga ko’ra, “Postmodernizm shunday qo’shma hodisaki, uning bir qismi haqida aytilgan har qanday fikr deyarli boshqa bir qismi uchun noto’g’ri bo’lib chiqadi.” Olim bu bilan postmodernizm yagona tushuncha emasligini ochib berib, undagi ba’zi qarashlar potmodernizmning biror qismida to’g’ri bo’lishi mumkin lekin boshqa bir qismiga to’g’ri kelmasligini tushuntiradi. Postmodernizm universal haqiqatlarga shubha bilan qaraydi, lekin shu bilan birga, ba’zi oqimlar o’z haqiqatlarini ilgari suradi. Masalan, postmodern san’at eksperimental va radikal bo’lishi mumkin, lekin postmodern arxitektura an’anaviy unsurlarni qayta ishlaydi.

Olimlarning fikridan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, postmodernizm — bu aniq chegaralarga ega bo’lmagan, doimiy o’zgarib turadigan va ziddiyatlarga to’la hodisa. U modernizmning davomi bo’lsa-da, shunga qarshi chiqishi va eski qoidalarni buzib, o’zini qayta yaratish orqali mavjudlikni davom ettirishi mumkin. Postmodernizmning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u aniq ta’rifga sig’maydi, chunki uning ichida turli va ba’zan bir-biriga zid qarashlar mavjud.

Umuman olganda, postmodernizمنى tushunish uchun uni statik yoki qat’iy chegara bilan o’ralgan hodisa sifatida emas, balki harakatdagi, doimiy o’zgaruvchan jarayon sifatida ko’rish kerak. Uning mohiyati aynan o’zgarish va turli yondashuvlarning doimiy kurashi bilan belgilanadi.

Postmodern adabiyotning asosiy maqsadi haqiqatni noaniqlik va noreallik orqali aks ettirishdir. Undagi voqealar an’anaviy tartib va mantiqiy bog’liqlikdan uzoqlashgan holda, parchalangan va uzluksiz shaklda tasvirlanadi. Uning eng muhim jihatlaridan biri intertekstuallik bo’lib, unda bir adabiy asar boshqa bir asarning asosiy g’oyasiga asoslanib yoziladi. Yangi yozilgan kitob avvalgi asarlarga murojaat qiladi va shu orqali ularning g’oyalarini davom ettiradi yoki yangicha talqin qiladi. Misol qilib aytadigan bo’lsak, Set Grehem-Smitning “Andisha va G’urur va Zombilar” asari Jeyn Ostinning “Andisha va G’urur” asari asosida yozilgan hisoblanadi. Jeyn Ostinning asarida 19-asrda insonlarning ijtimoiy kelib chiqishi va iqtisodiy ahvoli ularning turmush qurushiga ta’sir qilishi shuningdek, jamiyatda boy, qashshoq tabaqalar o’rtasidagi farqlar ko’rsatilgan. Set Grehem-Smitning asarida hikoyaning asosiy qismi “Andisha va



POLAND



POLAND

G'urur" asari bilan bir xil qoladi, asl qahramonlarning fe'l atvori saqlanadi. Unga zombi mavzusi qo'shilib, qahramonlar Angliyada tarqalgan epidemiyada zombilarga qarshi kurashadi. Asarda 19-asr romantik uslubi va zamonaviy harakat sahnalari aralashadi, bu esa kitobni hajviy va kulgili qiladi.

Shuningdek, postmodern adabiyotning asosiy xususiyatlaridan biri qora yumor va kinoyadir. Unda zamonaviy texnologiyalarga shubha bilan qarash ham uchraydi. Postmodern adabiyotda muallif "o'lgan" hisoblanadi, ya'ni asar yozuvchi nuqtayi nazaridan emas tavsiflanmay, o'quvchi ixtiyoriga qo'yiladi. Yozuvchini to'g'ri tushunish va asarga ma'no berish bevosita o'quvchining dunyoqarashiga bog'liq bo'ladi. Postmodern asarlarni tushunish uchun o'quvchi ham muallifga aylanadi, ya'ni u matnni tushunib, uni o'z talqiniga ko'ra "yozib chiqishi" kerak bo'ladi.

Ramzlardan foydalanish ham postmodern adabiyotining muhim jihatlaridan biri bo'lib, unda har bir narsa o'ziga xos metaforik ma'noga ya'ni ko'chma ma'noga ega bo'ladi. Bu o'quvchidan chuqur fikrlashni, yashirin ma'nolarni izlashni va o'zi mustaqil tarzda xulosa chiqarishni talab qiladi. Haruki Murakamining "1Q84" romani – postmodernizm ruhida yozilgan va ramziy ma'nolarga boy asar bo'lib, undagi yashirin simvollar haqiqatni anglash jarayoniga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Asarning nomi ham o'ziga xos ma'noga ega: undagi "Q" harfi ingliz tilidagi question (savol) so'zini ifodalashi yoki yapon tilida "kyu" – ya'ni 9 raqamiga ishora qilishi mumkin. Bu esa haqiqatning mavhumligi va noaniqligini ta'kidlaydi. Asardagi asosiy ramzlardan biri – osmondagi ikkita oy bo'lib, qahramon Aomame ushbu g'ayritabiiy hodisa orqali muqobil dunyoga tushib qolganini anglaydi. Bu motiv haqiqatning ikkiga ajralishi, insonning o'z olamidan uzilishi yoki yangi haqiqatga qadam qo'yishini ifodalaydi. Mazkur g'oya Jorj Orvelning 1984 romaniga ham ishora bo'lib, u yerda totalitarizm va manipulyatsiya mavzulari o'rta tashlanadi.

Parodiya va pastish (boshqa asarlarda ko'chirib yaratilgan asar): Postmodern adabiyotda boshqa janr yoki uslublar taqlid qilinadi yoki kulgili tarzda o'zgaradi. Bunda eski adabiy shakllar qayta ishlanishi va hazil yoki istehzo qo'shilishi mumkin. Maqsad – mavjud janr va uslublarni savol ostiga qo'yish yoki ulardagi kamchiliklarni ko'rsatish.

Metahikoya (meta-narrative): Hikoya ichida boshqa bir hikoyaga murojaat qilinishi yoki muallifning bevosita asar tuzilishini sharhlashi postmodern adabiyotning muhim xususiyatlaridan biridir. Masalan, Don Kixot asarida bosh qahramon ritsarlik romanlarini o'qib, o'zini ana shu romanlarning qahramoni sifatida tasavvur qiladi. Bu nafaqat adabiyotning inson ongiga ta'sirini ochib



POLAND



POLAND

beradi, balki asarning o'zini ham adabiy jarayonning bir qismi sifatida namoyon qiladi. Postmodern adabiyoti odamlarni haqiqat va katta tushunchalarni o'z fikri va hayotiy tajribasiga qarab tushunishga chaqiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, postmodernizm – bu adabiyot va san'atga yangicha qarash, eski qoidalarga bog'lanmaslik va har narsani erkin talqin qilish demakdir. Bu oqim haqiqatni bitta aniq tushuncha emas, balki har kim o'zicha anglaydigan narsa deb hisoblaydi. Fikrimizcha, postmodernizm insonni o'zgacha fikrlashga, hamma narsaga turli tomondan qarashga o'rgatadi. Garchand, postmodernizmning murakkab va chalkash tomonlari mavjud bo'lsada, uning o'ziga xosligi, bu ironiyaga boyligi va turli asarlarning o'zida mujassamlashtirishi hamda ijod va fikrlash erkinligi uchun katta imkoniyat yaratishidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Djalaldinova, M. Z. (2023). Ikkinchi Jahon urushidan keyin postmodernizmning paydo bo'lish xususiyatlari. Zenodo.p:9
- 2.Ferdinal,Seswita,& Sandika,E.(2020).Introduction to literary studies.CV.Panama Jemboan. p:165
- 3.Jean-François Lyotard.(1979) .The Postmodern Condition: A Report on Knowledge .Minneapolis: University of Minnesota Press. p:144
- 4.Matthias Stephan.(2019).Defining literary postmodernism for the twenty-first century. Springer nature Switzerland . p:206
5. Quronov D. (2010). Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent: Akademnashr.
- 6.Ulug'bek.Hamdov.(2020)Jahon Adabiyoti.Modernizm va Postmodernizm Toshkent: Akademnashr.p:145
- 7.<https://cyberleninka.ru/article/n/jahon-adabiyotida-postmodernizmning-kelib-chiqishi-tarixi-va-hozirgi-holati/viewer>.
- 8..<https://prezi.com/p/uas4ulrjnowt/postmodernism/>
- 9.<https://www.tate.org.uk/art/art-terms/p/postmodernism#:~:text=While%20modernism%20was%20based%20on,are%20universal%20certainties%20or%20truths>